OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI
Sana: 02.11.2024 - 03.11.2024

Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma, “tashkilotchi” deb yuritiladi) jismoniy shaxslar (keyingi o‘rinlarda –“Samarkand Marathon” tadbiri ishtirokchilari) o‘rtasidagi ommaviy oferta shartnomasi hisoblanadi va ushbu shartnomaning predmeti bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish uchun barcha muhim shartlarni o‘z ichiga oladi.
O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi talablari bandiga muvofiq quyida keltirilgan shartlar qabul qilingan va xizmatlar uchun haq to‘langan taqdirda,ushbu taklifni qabul qilgan jismoniy shaxs ”Samarkand Marathon” festivalini ishtirokchisiga aylanadi. (Fuqarolik Kodeksining 370-372-moddasiga binoan, taklifni qabul qilish taklifda ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha bitim tuzish bilan barobardir) tashkilotchi va ”Samarkand Marathon” ishtirokchisi ommaviy oferta shartnomasining tomonlari hisoblanadi.
”Samarkand Marathon” tadbiri ishtirokchilaridan yuqorida qayd etilganlar munosabati bilan ushbu ommaviy oferta shartnomasi matnini diqqat bilan o‘qib chiqish talab etiladi.
”Samarkand Marathon” ishtirokchisi tomonidan ushbu shartnomaning biron-bir bandiga nisbatan etiroz bildirilgan holatda tashkilotchi xizmatlardan foydalanishni rad etish taklifi bilan chiqadi.

I. OFERTA SHARTNOMASINING PREDMETI

1.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi – Jamg‘arma tomonidan tashkil etiladigan “Samarkand Marathon” festivalida (keyingi matnlarda Tadbir deb ataladi) ishtirok etishni istagan shaxsga ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlar asosida Tadbirni tashkil etish va o‘tkazish shaklida, shu jumladan tanlangan masofa uchun tadbir ishtirokchisi sifatida elektron ro‘yxatdan o‘tkazish orqali va ular bilan cheklanmagan holda xizmatlar ko‘rsatish.

1.2. Tomonlar tashkilotchi har qanday vaqtda ob-havo va boshqa sharoitlar tufayli masofa parametrlarini, shuningdek, uning masofa turlarini va nomlarini saqlab qolgan holda tadbir o‘tkaziladigan joyni o‘zgartirish huquqiga ega ekanligiga kelishib oldilar.

1.3. Tadbirni o‘tkazish va unda Ishtirokchining ishtirok etishi bo‘yicha xizmatlar to‘plami quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

musobaqa ishtirokchisi sifatida masofa turi bo‘yicha ishtirokchi tanlagan turga:

«2K NW», «KIDS RUN-300», «KIDS RUN-600», «2K», «5K», «10K», «21.1K», «42.2K» elektron ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha xizmatlar;

tadbirni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar va unda qatnashuvchi ishtirok etishi;

II. SHARTNOMA MUDDATLARI

2.1. Ushbu shartnomaning matni ommaviy ofertasi hisoblanadi (Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq).

2.2. Oferta aksepti ishtirokchi tomonidan ushbu shartnomaning barcha shartlarining to‘liq va so‘zsiz hamda istisnolarsiz va / yoki cheklovlarsiz qabul qilishini anglatadi va yozma ravishda bitim tuzish bilan barobardir.

2.3. Oferta akseptini qabul qilish uchun tadbir ishtirokchisi ketma-ketlikda quyidagi bosqichlarni bajaradi:

2.3.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi bilan tanishishni amalga oshiradi, tadbir to‘g‘risidagi Nizom va boshqa ma'lumotlar bilan tadbirning https://events.samarkandmarathon.uz/ veb-saytida joylashtirilgan ma’lumotlar bilan tanishish;

2.3.2. Tanlangan masofaga elektron ro‘yxatdan o‘tishni amalga oshiradi va https://events.samarkandmarathon.uz/ veb-saytida ro‘yxatdan o‘tish badali summasini to‘lash.

2.4. Ro‘yxatdan o‘tish badali summasini to‘lash bo‘yicha tadbir ishtirokchisi tomonidan ko‘rilgan xatti-harakatlar ushbu ishtirokchi tomonidan mazkur shartnoma shartlarini to‘liq va shartsiz qabul qilganligini (qabul qilinganligini) anglatadi va yozma ravishda bitim tuzish bilan barobardir.

2.5. Ushbu kelishuv tadbir ishtirokchisi va tashkilotchisi o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarda asosiy hujjat hisoblanadi. Tadbir ishtirokchisi ushbu shartnomaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligiga kafolat beradi, va u ularni so‘zsiz va to‘liq qabul qiladi.

2.6. Shartnomaning amal qilish muddati 31.12.2023 yil.

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Tadbir ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Musobaqalarda qatnashish uchun masofa turi: «2K NW», «KIDS RUN-300», «KIDS RUN-600», «2K», «5K», «10K», «21.1K», «42.2K» bo‘yicha elektron ro‘yxatdan o‘tishni amalga oshirish:

3.2. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Tadbir ishtirokchisidan ushbu ommaviy oferta shartnomasida va tegishli Tadbir nizomida ko‘rsatilgan barcha qoidalarga rioya qilishni talab qilish;

3.2.2. Ro‘yxatdan o‘tish va ro‘yxatdan o‘tish to‘lovini to‘lashda tadbir ishtirokchisidan ushbu shartnoma shartlariga to‘liq rozi bo‘lishini talab qilish;

Tadbir ishtirokchisi ushbu shartnoma shartlariga rozi bo‘lishni rad etsa, tadbirda ishtirok etish uchun ariza beruvchini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish;

3.2.3. Hech qanday tovon va javobgarliksiz, ushbu materiallardan foydalanish joyi va muddatlari cheklanmagan holda tadbir ishtirokchisi ishtirokida fotografiya, audio va / yoki video materiallardan poligrafiya sanoatidagi reklama, va boshqa nashrlarda, radio, televideniye, internet va boshqa manbalarda foydalanish, shuningdek, bunday materiallarni tahrirlash va ularni uchinchi shaxslarga o‘tkazish.

3.2.4. Tadbir ishtirokchisi quyidagi hollarda diskvalifikatsiya qilinishi mumkin:

agar ishtirokchi musobaqaning rasmiy boshlanishidan oldin yoki start yopilganidan keyin boshlagan bo‘lsa;

agar ishtirokchi mexanik transport vositalaridan foydalangan bo‘lsa;

tadbirdagi sportga xos bo‘lmagan xatti-harakatlari uchun.

Diskvalifikatsiya qilish to‘g‘risida qaror tadbirning ishchi qo‘mitasi tomonidan qabul qilinadi.

3.3. Tadbir ishtirokchisi quyidagilarni bajarishi shart:

3.3.1. Ushbu shartnoma shartlarini qabul qilishi; Kelishmovchilik vujudga kelgan holatda tadbir ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Agar tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tish uchun to‘lovni amalga oshirgan bo‘lsa, unda u ushbu shartnomaning barcha shartlarini qabul qilgan hisoblanadi.

3.3.2. https://www.samarkandhalfmarathon.uz/ va https://bukharanightrace.uz/ veb-saytida ushbu ommaviy oferta shartnomasi shartlarini, Tadbir to‘g‘risidagi Nizomni batafsil o‘qib chiqishi va ularning barcha qoidalariga rioya qilishi;

3.3.3. Agar tashkilotchining ko‘rsatilgan saytida tegishli hujjatlar topilmasa, tashkilotchiga murojaat qilishi va faqat ushbu hujjatlar bilan tanishgandan so‘ng, tadbirda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tishga kirishishi. Tadbir ishtirokchisining taqdim etilgan hujjatlar matni ma‘nosini noto‘g‘ri tushunishi natijasida qilingan harakatlar uchun tashkilotchi ma’suliyatni o‘z bo‘yniga olmaydi);

3.3.4. Ro‘yxatdan o‘tish to‘lovini to‘lashdan oldin uni o‘qib chiqishi va qabul qilishi;

3.3.5. Tashkilotchi tomonidan taklif qilingan to‘lov usullaridan foydalangan holda ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘liq to‘lashi;

3.4. Tashkilotchi quyidagilarni bajarishi shart:

3.4.1. Tadbir ishtirokchisiga ushbu shartnoma shartlariga asosan qat‘iyan o‘zi tanlagan masofaga tadbirda ishtirok etish uchun elektron ro‘yxatdan o‘tishni amalga oshirish huquqini taqdim etishi.

3.4.2. Agar tadbir ishtirokchisi ushbu shartnoma shartlariga rozi bo‘lsa, ro‘yxatdan o‘tish uchun to‘lovni qabul qilishi.

3.4.3. Musoboqa davomida ishtirokchi koronavirus infeksiyasining tarqalishidan (“COVID-19”) himoya qilish uchun barcha choralarni bajarishi, xususan, boshqa odamlardan tavsiya etilgan masofani saqlashi va tibbiy niqob taqishi kerak.

3.4.4. Tashkilotchi (Jamg‘arma) ushbu shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati uchun javobgardir.

IV. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Tadbir ishtirokchisi “Visa International”, “Master Card”, “Uzcard”, “Humo” to‘lov tizimlarining bank kartalari yordamida ro‘yxatdan o‘tish badali va qayta ro‘yxatdan o‘tish xizmati summasini to‘laydi.

4.2 Ro‘yxatdan o‘tish to‘lovi summasini O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda ko‘rsatiladi.

4.3. Ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lashda tashkilotchi ro‘yxatdan o‘tish rasmiy ochilgan kundan boshlab, ro‘yxatdan o‘tish badalining quyidagi miqdorlarini belgilaydi:

Ro‘yxatdan o‘tish narxi: https://events.samarkandmarathon.uz/ veb-saytida ko‘rsatilgan.

4.4. Masofani o‘zgartirish.

4.4.1. Qayta ro‘yxatdan o‘tkazish 2024-yil 20-oktyabr gacha kechiktirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

4.4.2. Ishtirokchilarning kerakli masofaga bo‘lgan chegarasi tugagan bo‘lsa, qayta ro‘yxatdan o‘tish mumkin emas.

4.4.3. Kamroq ro‘yxatdan o‘tish badali bilan qayta ro‘yxatdan o‘tish uchun to‘lovdagi farq qaytarilmaydi.

4.5. Qayta ro‘yxatdan o‘tish uchun musoboqa ishtirokchisi marathon@acdf.uz texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi kerak.

So‘rovlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish birinchi navbatda amalga oshiriladi va uch kungacha davom etishi mumkin.

V. ELEKTRON RO‘YXATGA OLISH BO‘YICHA ALOHIDA QOIDALAR

5.1. Tadbir ishtirokchisi sifatida elektron tarzda ro‘yxatdan o‘tishda, tadbir ishtirokchisi har qanday holatda ham ro‘yxatdan o‘tishning veb-shaklidagi barcha kerakli kataklarni to‘ldirib, o‘zi haqida to‘liq ma‘lumot berishni o‘z zimmasiga oladi. Agar bunday ma’ lumotlar taqdim etilmagan bo‘lsa, shuningdek, noto‘g‘ri yoki tasdiqlanmagan ma’lumotlar berilgan taqdirda, tashkilotchi ishtirokchisini musoboqa ishtirokchisi sifatida elektron ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishga haqlidir.

5.2. Musoboqa ishtirokchisi yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotni taqdim etish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

VI. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardir.

6.2. Tadbir ishtirokchisining tashkilotchi tomonidan belgilangan talablar

va qoidalarni bilmasligi yoki bajarmasligi uchun tashkilotchi javobgar emas.

6.3. Tashkilotchi ushbu kelishuv shartlarini va Tadbir to‘g‘risidagi tegishli Nizomni noto‘g‘ri tushunish yoki tushunmaslik natijasida Tadbir ishtirokchisiga yetkazilgan har qanday yo‘qotish va ma’naviy zarar uchun javobgar emas.

6.4. Tadbir davomida ishtirokchi va / yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan shikast yoki zarar uchun tashkilotchi javobgar bo‘lmaydi, agar bunday shikast yoki zarar tashkilotchi tomonidan Tadbir ishtirokchisiga nisbatan beparvolik bilan yoki ataylab o‘z vazifalarini e’tiborsiz qoldirish natijasida qabul qilinmasa.

6.5. Tashkilotchi tadbir davomida ishtirokchiga va / yoki uning mol-mulkiga, ularning aybi tufayli yetkazilgan shikast yoki zarar uchun javobgar emas.

6.6 Tashkilotchi voyaga yetmagan ishtirokchilar uchun javobgar emas.

Ota-onalar yoki ularning vasiylari ular uchun to‘liq javobgardirlar.

6.7. Tadbirda ishtirok etish orqali ishtirokchi o‘zining sog‘ligi uchun xavfli yoki cheklashi mumkin bo‘lgan tibbiy yoki boshqa cheklovlarga ega emasligini ta’minlash maqsadida uning tadbirda ishtirok etishi, boshqa narsalar qatori jismoniy holati va sog‘lig‘i uchun tadbirda ishtirok etish xavfsizligini ta‘minlash maqsadida muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tayotganligini tasdiqlaydi, su jumladan uzoq muddatli jismoniy faoliyatga qarshi ko‘rsatmalarga ega emasligi va uning sog‘lig‘i unga tadbirda qatnashishga imkon berishi va ushbu holatning buzilishi bilan bog‘liq barcha xavf va salbiy oqibatlarni o‘z zimmasiga oladi.

6.8. Ishtirokchi ishtirok etish joyida belgilangan karantin choralarini (agar mavjud bo‘lsa) bajarishi uchun javobgardir. Agar tadbirda qatnashish karantin choralari talablariga zid bo‘lsa, ishtirokchi tadbirda qatnashishdan bosh tortishi zarur.

VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bunday muvaffaqiyatsizlik yengib bo‘lmas kuchlar (favqulodda holatlar) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa.

7.2. Favqulodda vaziyatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, harbiy harakatlar, pandemiya va epidemiyalar, butun mamlakat bo‘ylab inqiroz, sanoat yoki mintaqadagi ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining harakatlari va qarorlari, telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlarning ta’siri, shuningdek, uchinchi shaxslarning adolatsiz hatti-harakatlari, Tomonlarning har birining ruxsatsiz kirishiga va / yoki dasturiy va / yoki apparat majmuasini (to‘lov tizimlari va boshqalar) o‘chirishga qaratilgan harakatlar.

VIII. MAXFIYLIK SIYOSATI

8.1. Saytda ma’lumotlarni qoldirib, Tadbir ishtirokchisi maxfiylik va axborotni muhofaza qilish siyosatiga rozi.

8.2. https://events.samarkandmarathon.uz/ saytining ma’muriyati (keyingi matnlarda Sayt deb yuritiladi) tadbir ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda va sayt funksiyalaridan foydalanishda foydalanuvchi ishlaydigan mamlakatda uchinchi shaxslarga uzatishi yoki oshkor etishi mumkin emas, bunda qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

8.3. Saytda muloqot qilish uchun Tadbir ishtirokchisi ba’zi shaxsiy ma’lumotlarni kiritishi shart. Taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish uchun sayt onlayn yoki oflayn rejimda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

8.4. Sayt texnik xizmat ko‘rsatish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun Tadbir ishtirokchisining shaxsiy ma’lumotlaridan foydalanadi.

Shaxsiy ma’lumotlarning bir qismi bankka yoki to‘lov tizimiga taqdim etilishi mumkin, agar ushbu ma’lumoti taqdim etilishi foydalanuvchi foydalanmoqchi bo‘lgan xizmatlarning to‘lov tizimiga mablag‘ o‘tkazish tartibiga bog‘liq bo‘lsa.

Sayt Tadbir ishtirokchisining shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligini saqlash uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Shaxsiy ma’lumotlar qonun bilan tavsiflangan hollarda yoki ma’muriyat ushbu harakatlarni Ishtirokchining Sayt bilan ishlashi uchun zarur bo‘lgan sud protsedurasiga, sud qaroriga yoki sud jarayoniga rioya qilish uchun zarur deb hisoblaganda oshkor qilinishi mumkin. Boshqa hollarda, hech qanday holatda, Tadbir ishtirokchisining Saytga taqdim etadigan ma’lumotlari uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

8.5. Tadbir Ishtirokchisi ma’lumotlarni aniqlagandan so‘ng, u muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida xabarni oladi. Tadbir ishtirokchisi har qanday vaqtda Saytdagi tegishli xizmatdan foydalangan holda axborot byulletenlarini olishni to‘xtatish huquqiga ega.

8.6. Saytda boshqa saytlarga havolalar bo‘lishi mumkin. Sayt ushbu saytlarning tarkibi, sifati va xavfsizlik siyosati uchun javobgar emas. Ushbu maxfiylik to‘g‘risidagi bayonot faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri saytda joylashtirilgan ma’lumotlarga tegishli.

8.7. Sayt Foydalanuvchining qayd etish yozuvini ruxsatsiz kirish xavfsizligini ta’minlaydi.

8.8. Sayt maxfiylik siyosatiga qo‘shimcha ogohlantirishsiz o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Innovatsiyalar e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Tadbir ishtirokchilari maxfiylik siyosatidagi o‘zgarishlarni o‘zlari kuzatishi mumkin.

IX. SHARTNOMAGA O‘ZGARTIRISH KIRINISH VA BEKOR QILISH

9.1. Ushbu shartnoma ro‘yxatdan o‘tgan va tadbir ishtirokchisi tomonidan ro‘yxatdan o‘tish badali to‘langan paytdan boshlab kuchga kiradi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha xizmat ishtirokchi tadbirda ishtirok etganligini tasdiqlovchi xat yoki ushbu xabarni https://events.samarkandmarathon.uz/ veb-saytida joylashgan ishtirokchining shaxsiy kabinetiga olgan paytdan boshlab taqdim etilgan hisoblanadi.

9.3. Tashkilotchi ushbu shartnoma shartlarini Tadbir ishtirokchilariga oldindan ogohlantirmasdan o‘zgartirish huquqiga ega.

9.4. Agar ushbu shartnomaga tuzatishlarning kuchga kirishi vaqti aniq belgilanmagan bo‘lsa, ular Tadbir https://events.samarkandmarathon.uz/ veb-saytida e’lon qilingan vaqtdan boshlab ishlay boshlaydi.

X. NIZOLARNI HAL QILISH

10.1. Tomonlarning ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishidan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan, da’vo tartibida hal qilinadi. Agar ularni yo‘q qilishning iloji bo‘lmasa, Tomonlar o‘z manfaatlarini sud tomonidan himoya qilish to‘g‘risida tashkilotchining joylashgan joydagi sudga murojaat qilish huquqiga ega.
10.2. Amaldagi qonun – bu O‘zbekiston Respublikasining qonuni.
XI. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi
Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy,
tel: 71 207-40-80
STIR: 305122818, IFUT: 84120